

SUN'YI INTELLEKT IJODIY FAOLIYATINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH
MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ
ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

PROBLEMS AND PROSPECTS OF LEGAL REGULATION OF ARTIFICIAL
INTELLIGENCE CREATIVE ACTIVITY

Sultanova Sevinch Hasanovna

*O'zbekiston Milliy Universiteti Patentshunoslik yo 'nalishi 4-kurs talabalari E-mail:
sevinch2103@icloud.com*

Xolboyev Diyor Ulug'bek o'g'li

Ilmiy rahbar: Huquqiy fanlar kafedrası stajor - o'qituvchisi

Abdixakimov Farhod Zafar o'g'li

Annotatsiya: *Mazkur ilmiy maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining ijodiy faoliyat sohasida qo'llanilishi natijasida yuzaga kelayotgan huquqiy muammolar tizimli ravishda tahlil etiladi. Xususan, sun'iy intellekt ishtirokida yaratilgan ijob mahsulotlarining huquqiy maqomi, ularni mualliflik huquqi obyektlari sifatida e'tirof etish masalasi, mualliflik huquqi subyekti muammosi hamda huquqiy javobgarlikni belgilashdagi bo'shliqlar ilmiy-huquqiy nuqtayi nazardan ochib beriladi. Shuningdek, xorijiy davlatlar tajribasi tahlili asosida milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha asoslangan takliflar ilgari suriladi.*

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, ijodiy faoliyat, mualliflik huquqi, intellektual mulk, huquqiy tartibga solish.*

Аннотация: *В данной научной статье систематически анализируются правовые проблемы, возникающие в связи с использованием технологий искусственного интеллекта в сфере творческой деятельности. В частности, с научно-правовой точки зрения выявляются правовой статус творческих произведений, созданных с участием искусственного интеллекта, вопрос их признания объектами авторского права, проблема субъекта авторского права и пробелы в определении правовой ответственности. Также на основе анализа опыта зарубежных стран выдвигаются обоснованные предложения по совершенствованию национального законодательства.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, творческая деятельность, авторское право, интеллектуальная собственность, правовое регулирование.*

Abstract: *This scientific article systematically analyzes the legal problems arising from the use of artificial intelligence technologies in the field of creative activity. In particular, the legal status of creative products created with the participation of artificial intelligence, the issue of their recognition as objects of copyright, the problem of the*

subject of copyright, and the gaps in determining legal liability are revealed from a scientific and legal point of view. Also, based on the analysis of the experience of foreign countries, substantiated proposals are put forward to improve national legislation.

Keywords: *artificial intelligence, creative activity, copyright, intellectual property, legal regulation.*

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi huquqiy munosabatlarning yangi shakllarini vujudga keltirmoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt texnologiyalarining tezkor rivoji nafaqat iqtisodiy va texnologik jarayonlarga, balki ijodiy faoliyat sohasiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda sun'iy intellekt yordamida musiqiy asarlar, vizual tasvirlar, dizayn loyihalari hamda turli matnlar yaratilayotgani huquqiy tartibga solishning an'anaviy yondashuvlari yetarli emasligini ko'rsatmoqda.

Amaldagi mualliflik huquqi konsepsiyasi ijod subyekti sifatida faqat insonni tan oladi. Biroq sun'iy intellektning mustaqil ravishda natija yaratish qobiliyati ushbu yondashuvni qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Shu sababli sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan asarlarning huquqiy maqomi, mualliflik huquqi bilan himoyalanih imkoniyati hamda huquqiy javobgarlik masalasi dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida sun'iy intellektni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan⁸. Biroq ijodiy faoliyat bilan bog'liq huquqiy munosabatlarni tartibga solish masalasi hali yetarli darajada normativ jihatdan mustahkamlanmagan.

Sun'iy intellekt deganda, murakkab algoritmlar asosida ma'lumotlarni qayta ishlash, o'rganish va mustaqil qarorlar ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'lgan texnologik tizimlar tushuniladi. Ijodiy faoliyat esa yangi, noyob va individual natija yaratishga qaratilgan intellektual jarayon sifatida tavsiflanadi. Huquqiy doktrinada ijodiy faoliyatning asosiy belgisi sifatida inson tafakkurining bevosita ishtiroki e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga ko'ra, muallif faqat asarni yaratgan jismoniy shaxs bo'lishi mumkin⁹. Shu sababli sun'iy intellekt tomonidan mustaqil yaratilgan asarlarning huquqiy maqomi mavjud huquq normalari doirasida aniq belgilanmagan.

Sun'iy intellekt ijodiy faoliyatini huquqiy tartibga solishdagi muammolar

1. Mualliflik huquqi subyekti muammosi

Sun'iy intellekt huquq subyekti sifatida tan olinmaganligi sababli, u tomonidan yaratilgan asarlarning muallifi masalasi ochiq qolmoqda. Amaliyotda mualliflik huquqini dastur ishlab chiquvchiga, tizim egasiga yoki foydalanuvchiga bog'lashga

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son "Sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish to'g'risida"gi qarori;

⁹ O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuni;

urinishlar mavjud. Biroq bunday yondashuvlar asarning real yaratilish jarayonini to'liq aks ettirmaydi.

2. Asarni intellektual mulk obyekt sifatida tan olish masalasi

Sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan ijod mahsulotlarining mualliflik huquqi obyektlari sifatida tan olinmasligi ularni huquqiy muhofazadan mahrum qiladi. Bu esa innovatsion faoliyatni rag'batlantirish mexanizmlarining samaradorligini pasaytiradi.

3. Huquqiy javobgarlikni belgilashdagi noaniqlik

Agar sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan mahsulot boshqa asarlarni noqonuniy takrorlasa yoki huquq buzilishiga olib kelsa, javobgarlik kim zimmasiga tushishi masalasi huquqiy jihatdan yetarli darajada tartibga solinmagan¹⁰.

Xorijiy tajriba va normativ yondashuvlar

Buyuk Britaniya qonunchiligida kompyuter yordamida yaratilgan asarlar bo'yicha muallif sifatida asar yaratilishini tashkil etgan shaxs e'tirof etiladi¹¹. AQSh huquq tizimida esa inson ishtirokisiz yaratilgan asarlar mualliflik huquqi bilan himoyalalmaydi¹². Yevropa Ittifoqida esa sun'iy intellektdan foydalanishda ehtiyotkorlik va inson manfaatlarini ustuvorligi tamoyili qo'llaniladi¹³.

Muammolarni bartaraf etish bo'yicha takliflar:

1. Sun'iy intellekt ishtirokida yaratilgan asarlar uchun alohida huquqiy toifa joriy etish;
2. Mualliflik huquqi to'g'risidagi qonunchilikka sun'iy intellektga oid maxsus normalarni kiritish;
3. Huquqiy javobgarlikni risk va nazorat darajasiga qarab belgilash;
4. Sun'iy intellektdan foydalanishda shaffoflik va hisobdorlik mexanizmlarini mustahkamlash.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Sun'iy intellekt texnologiyalarining ijodiy faoliyat sohasidagi ishtiroki huquqiy tartibga solish tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Chunki amaldagi mualliflik huquqi va intellektual mulk to'g'risidagi qonunchilik asosan inson tomonidan yaratilgan ijod mahsulotlariga qaratilgan bo'lib, sun'iy intellekt ishtirokida yoki uning tomonidan mustaqil ravishda yaratilgan asarlarni to'liq qamrab olish imkoniyatiga ega emas. Bu holat huquqiy noaniqliklarni keltirib chiqarib, ijodiy faoliyat sohasida yangi turdagi nizolar yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellektning ijodiy faoliyatdagi ishtiroki, eng avvalo, mualliflik huquqi subyekti masalasini aniqlashtirishni talab etadi. Sun'iy intellekt huquq subyekti sifatida tan olinmagan sharoitda, u tomonidan yaratilgan asarlarga nisbatan mualliflik huquqining kimga tegishli ekanligini belgilash dolzarb masalaga aylanmoqda. Shuningdek, bunday asarlarni intellektual mulk obyekt sifatida e'tirof etish, ulardan foydalanish tartibini belgilash hamda huquq buzilgan

¹⁰ Intellectual Property and Artificial Intelligence. WIPO, 2020;

¹¹ Copyright, Designs and Patents Act 1988 (UK);

¹² U.S. Copyright Office. Copyright Guidance on AI-generated works, 2023.

¹³ European Commission. Ethics Guidelines for Trustworthy Artificial Intelligence. – Brussels, 2019.

taqdirda javobgarlikni aniqlash masalalari ham chuqur ilmiy-huquqiy yondashuvni talab qiladi.

Shu bois, sun'iy intellekt va ijodiy faoliyat o'rtasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish nafaqat nazariy, balki muhim amaliy ahamiyatga ega.

Milliy qonunchilikni rivojlantirish jarayonida xorijiy davlatlar tajribasini tanqidiy tahlil qilish, sun'iy intellekt ishtirokida yaratilgan asarlar uchun alohida huquqiy rejim joriy etish hamda mualliflik huquqi to'g'risidagi qonunchilikka maxsus normalarni kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mazkur chora-tadbirlar ijodiy faoliyatni huquqiy jihatdan muhofaza qilish bilan birga, innovatsion texnologiyalar rivojini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuni;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son "Sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish to'g'risida"gi qarori;
3. Intellectual Property and Artificial Intelligence. WIPO, 2020;
4. Copyright, Designs and Patents Act 1988 (UK);
5. U.S. Copyright Office. Copyright Guidance on AI-generated works, 2023;
6. European Commission. Ethics Guidelines for Trustworthy Artificial Intelligence. – Brussels, 2019.